

## INGILIZ TILING KIRIB KELISHI VA FOYDALI TOMONLARI.

**Melikova Sevinch Zafar qizi**

*Samarqand davlat chet tillari instituti talabasi*

**Annotasiya:** *Ushbu maqolada ingliz tilini qanday kirib kelganligi va bu til talabalar uchun qanday imkoniyatlar yaraqtilganligi haqida va odamlar uchun qanday ta'sir ko'rsatishi yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *CEFR, IELTS, TOFEL sertifikatlari, Prezident qarori, ta'limni boshlang'ich sinflardan boshlab o'qitish qarori.*

### KIRISH

Hozirgi davr talabi desak adashmaymiz ingliz tili dunyo bo'ylab tarqalmoqda va eng ommabop til tillardan biriga aylanib ulgurgan.

Jumladan bizning yurtimizda ham jadallik bilan rivojlanib borayapti. Qachonki mustaqillikka erishgandan so'ng bu til o'qitila boshlagan . Aniqroq aytadigan bo'lsak O'zbekiston respublikasi soliq Prezidenti **I.A.Karimov** tomonidan qabul qilingan 2012- yil 10- dekabrda

1875 – qaroriga ko'ra (chet tilini o'rganish tizimini yanada yuksaltirish) to'g'risidagi qaroridan keyin boshlanadi. Bu qarorda 2013/2014 o'quv yilidan boshlab ingliz tili boshlang'ich sinfning dastlabki yillaridan boshlab o'qitilishi ko'zda tutilgan edi.

Keyinchalik O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasi qaroriga ko'ra DTM tarkibida chet tillarini bilish darajasini baholovchi boshqarma tashkil etildi. Bu boshqarma CEFR (Common European Framework of Reference for Languages) sertifikatlarini joriy qildi, bu sertifikat DTM

Imtihonlari uchun ham imtiyoz beradi.

2021- yil O'zbekiston respublikasi prezidenti **Sh.Mirziyoyev** xorijiy tillarni mukammal o'rganish chora tadbirlar to'g'risida yana bir qancha qaror qabul qildi. Jumladan yangi ishga qabul qilinayotgan talabgorning milliy yoki xalqaro sertifikatlari bo'lishi shartligi va 3 yil ichida barcha xodimlar xalqaro sertifikatlarga ega bo'lishi zarur.

Bu qarorlardan so'ng Respublika bo'ylab ingliz tili keng ko'lamda o'rganish maqsadida o'quv markazilarning ochilishi va ko'payishiga olib keladi.

Bu til bizning hayotimizda tobora katta o'rin tutmoqda misol uchun oddiy aftobus yo'riqnomasi ham ingliz tilida yozilgan, shunday ekan bu tilni biz maktab yoki institutda mukammal o'rganishimiz juda muhim.